

2. "Пул-кредит сиёсатининг 2025 йил ва 2026-2027 йиллар даврига мўлжалланган асосий йўналишлари", Ўзбекистон Республикаси Марказий банки, Пул-кредит сиёсати департаменти электрон нашри. Тошкент. - 2024й.

DUAL MOLIYA TIZIMI ORQALI AHOLINING BO'SH JAMG'ARMALARINI KAPITAL BOZORIGA JALB ETISH ISTIQBOLLARI

F.K Sindarov

TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy- tadqiqot markazi kichik ilmiy xodimi, O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi katta o'qituvchisi

O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning hozirgi bosqichida iqtisodiyotni liberallashtirish, xususiy sektor rolini oshirish va global moliya bozorlariga integratsiyalashuvga qaratilgan chuqur tarkibiy islohotlar olib bormoqda. "O'zbekiston-2030" strategiyasini amalga oshirish doirasidagi eng murakkab va ayni paytda istiqbolli vazifalardan biri aholining norasmiy jamg'armalarini investitsiyalarga samarali aylantira oladigan raqobatbardosh moliya bozorini yaratishdir. Bunda an'anaviy bank xizmatlarini muqobil islomiy moliya instrumentlari bilan integratsiyalashgan milliy dualistik moliya tizimi modelini ishlab chiqish va joriy etish iqtisodiy o'sish va moliyaviy inklyuzivlikning asosiy drayveri bo'lib xizmat qiladi.

"Dualistik moliya tizimi — bu an'anaviy (foiz stavkalariga asoslangan) va muqobil (foyda va zararni bo'lishish tamoyillariga asoslangan, ribo va spekulyativ operatsiyalardan xoli) moliya institutlari parallel ravishda va teng huquqiy sharoitlarda faoliyat ko'rsatadigan institutsional muhitdir".²⁵⁶ O'zbekiston uchun bunday modelga o'tish shunchaki "bank mahsulotlari assortimentini kengaytirish emas, balki iqtisodiyotning potentsial resurslari va bank depozitlarining real hajmi o'rtasidagi katta uzilishni bartaraf etishga qaratilgan kapitalni boshqarishning fundamental asosi ham hisoblanadi".²⁵⁷

2017-yilda boshlangan islohotlar valyuta bozori va bank sektorini sezilarli darajada liberallashtirdi, biroq "ishlamayotgan" pullar bank tizimidan tashqarida (yostiq ostida) saqlanayotgan naqd mablag'larning ulkan hajmi muammosi hamon dolzarbligicha qolmoqda. "Dualistik tizimning shakllantirilishi aholining

²⁵⁶ Khatat, M.E.H. (2016) Monetary policy in the presence of Islamic banking. IMF Working Paper, WP/16/72. Washington, DC: International Monetary Fund, March.

²⁵⁷ Benyamina, N. (2024) 'Financial dualism between Islamic and conventional finance: complementarity and contribution to sustainable and inclusive financing', Review MECAS (Algerian Scientific Journal Platform), 20(2), December.

aksariyat qismining madaniy va diniy qarashlarini inobatga olgan holda, ushbu mablag'larni qonuniy aylanmaga jalb qilishning eng samarali yo'li hisoblanadi".²⁵⁸

Olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra²⁵⁹, aholining ana'naviy bank tizimida jamg'armalarini saqlamayotganligi va qarz olmayotganligining asosiy sabab sifatida diniy omil, yuqori xarajat va qarz olishning murakkabligi hamda ishonch va moliyaviy savodxonlik yetishmasligi ko'rsatishmoqda.

O'zbekiston iqtisodiyoti o'zining tarkibiy transformatsiya bosqichida moliya tizimini diversifikatsiya qilish, uning barqarorligini oshirish va investitsiya muhitini tubdan yaxshilash kabi murakkab vazifalar bilan yuzma-yuz kelmoqda. Ushbu jarayonning markaziy qismida aholining "samarasiz" deb ataluvchi, ya'ni rasmiy iqtisodiy aylanmadan tashqarida qolayotgan ulkan jamg'armalarini rasmiy moliya sektoriga jalb qilish masalasi yotibdi. Hozirgi kunda "mamlakat aholisining katta qismi o'z mablag'larini bank tizimidan tashqarida saqlashni afzal ko'rayotgani, bir tomondan, moliya bozorida kapital tanqisligini keltirib chiqarsa, ikkinchi tomondan, aholi uchun jamg'armalarini inflyatsiyadan himoya qilish va ulardan qo'shimcha daromad olish imkoniyatlarini cheklab qo'ymoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston aholisining 78 foizi o'z mablag'larini uyda, naqd pul ko'rinishida saqlashni ma'qul ko'radi. Bu "yostiq ostidagi" mablag'lar mamlakat iqtisodiyoti uchun "passiv kapital" bo'lib, ular yangi ish o'rinlari yaratishga, texnologik modernizatsiyaga yoki ijtimoiy infratuzilmani yaxshilashga xizmat qilmayapti."²⁶⁰

Jahon banking 2025-yilgi tadqiqotlarida aniqlanishicha²⁶¹, O'zbekiston aholisining 60% tijorat banklaridan hisob raqami ochgan bo'lsada, ularning faqatgina 9% rasmiy jamg'armalarini bankda saqlaydi. BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP)ning 2020-yilgi "Landscaping Analysis of Islamic Finance Instruments in Uzbekistan" hisobotida ko'rsatilishicha²⁶², biznes vakillarining 38 % kredit olmasligiga sabab qilib diniy e'tiqodni ko'rsatgan, jismoniy shaxslar orasida esa bu ko'rsatkich 55,74 % bo'lgan. Foiz stavkalarining yuqoriligi (34 % biznes va 15,27 % jismoniy shaxslar) ham muhim sabab bo'lgan, ammo eng katta ulush diniy e'tiqod ekanligi ko'rsatilgan. Bu natijalar diniy e'tiqod an'naviy bank kreditlariga va depozitlarga ham ta'sir qilayotganini ko'rsatadi.

²⁵⁸ <https://proreforms.uz/uz/publications/can-islamic-finance-drive-banking-sector-development-in-uzbekistan-53>

²⁵⁹ Umarov, S., Tlemsani, I., Hashim, M.A.M. and Matthews, R. (2024) "Implementing Islamic banking in Uzbekistan", *Journal of Islamic Business and Management*, 14(1), pp. 21–36.


²⁶⁰ International Finance Corporation (IFC) (2020) *Enhancing Financial Capability and Inclusion in Uzbekistan: A Demand-side Assessment*. June. Washington, DC: International Finance Corporation (World Bank Group), in partnership with the Swiss Confederation.

²⁶¹ L.Klapper, D.Singer, L.Starita and A. Norris. *Global Findex Database 2025. Connectivity and Financial Inclusion in the Digital Economy*. World Bank Group. 20250

²⁶² Jakhongir Imamnazarov. "Landscaping Analysis of Islamic Finance Instruments in Uzbekistan", UNDP, June 2020

Shuningdek, UNDP 2025-yilgi tadqiqotlari doirasida tashkil qilingan so'rovnoma natijalariga ko'ra²⁶³, aholining 68 % va biznes vakillarining 60 % an'anaviy bank xizmatlaridan diniy e'tiqod sababli foydalanishni istamasligini bildirgan. Bu ko'rsatkichlar depozitlar, kreditlar va boshqa bank mahsulotlariga e'tiqod ta'sirini yuqori darajada ekanini ko'rsatadi.

UNDP so'rovnomalari bank kreditlari yoki bank xizmatlaridan foydalanmaslik sabablarini o'rganib, foizga asoslangan qarz munosabatlariga e'tibor qaratgan. 2020-yil hisobotidagi ma'lumotlar diniy e'tiqod bank kreditlaridan voz kechishning eng asosiy sabablaridan biri ekanini, 2025-yil tadqiqotlarida esa aholi va bizneslarning yirik qismi an'anaviy banklarga mutlaqo murojaat qilmasligini ko'rsatadi. Bu natijalar depozit, jamg'arma yoki boshqa bank mahsulotlariga ham o'xshash ta'sir ko'rsatadi.



1-rasm. O'zbekiston tijorat banklarning kredit va depozitlar bo'yicha ko'rsatkichlari, trln so'mda (2020-2025)²⁶⁴.

BMT Taraqqiyot Dasturi va Jahon banki tomonidan olib borilgan tahlil natijalari O'zbekiston aholisining asosiy qismi banklar tominidan taklif etilayotgan an'anaviy jamg'arish instrumentlaridan diniy etiqot sababli foydalanmasligini ko'rsatishi O'zbekistonda islomiy moliyalashtirish instrumentlarini joriy etishning zaruriyatidan dalolat bermoqda. O'zbekistonda Islomiy moliya xizmatlarini joriy etish masalasi dolzarb bo'lib, dualistik moliya tizimini shakllantirish orqali an'anaviy banklar qamrab ololmayotgan aholining mablag'larini jalb qilishda asosiy drayverlardan biriga aylanish potentsiali yuqori.

²⁶³ https://events.moody's.com/2025_mie23909_uzbekistan-and-cis-summit/banks-uzbekistan-uzbekistans-new-legal-framework-for-islamic-banking-would-boost-its-development

²⁶⁴ Markaziy Bank ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

O'zbekistonda moliyaviy inklyuzivligining pastligiga diniy omil muhim ta'sir ko'rsatadi. Jahon bankining Global Findex ma'lumotlariga ko'ra²⁶⁵, O'zbekistonda bank hisobi ochmagan aholining 25% diniy sabablarni to'siq sifatida ko'rsatgan. Bu ko'rsatkich hatto musulmon aholisi aksariyat bo'lgan mamlakatlar orasida yuqori sanaladi. Demak, Islomiy banklar va boshqa islomiy moliya instrumentlarini joriy etilishi ana shu toifa jamg'armalarni kapital bozoriga jalb etishga xizmat qiladi. Malayziya misolida Islomiy banklar tizimning deyarli yarmiga teng ulushni egallab, ilgari bankdan chetda qolgan mijozlarni moliya sektoriga kiritib olgani kuzatilgan. Malayziyadan tashqari Bahrayn, Indoneziya kabi mamlakatlar allaqachon dualistik moliya tizimini joriy etib, moliyaviy inklyuzivlikni oshirishga erishgan. Kreditlarning depozitlarga nisbati 2020-yildagi 241,38% dan 2025-yilda 144,76% gacha pastga tushgan.

Empirik tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, aholisini aksariyati musulmonlar yashaydigan mamlakatlarda investitsiyalar va YaIM o'sishi o'rtasidagi ijobiy bog'liqlik mavjud. Turkiyada o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, Islom moliyasining o'rtacha qiymatining 1 foizga oshishi YaIMni o'rtacha qiymatda 4,97 foizga oshiradi.²⁶⁶ Aholisining ko'pchiligi musulmonlar yashaydigan mamlakatlarda empirik hisob-kitoblarga asoslangan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Islom banklari tomonidan moliyalashtirishning 1 foizga oshishi real YaIMni 4,1 foizga oshirishi mumkin²⁶⁷. Shuningdek, VAR modeliga asoslangan tahlil natijalari, "uzoq muddatda islom investitsiyalarini amalga oshirish O'zbekiston yalpi ichki mahsulotini 16,3 foizga oshirishi va shu bilan 2 milliarddan ortiq ish o'rinlarini yaratishi mumkin"²⁶⁸.

Global islom moliya bozorining 66 % Saudiya Arabistoni (aholisi 35 mln), Eron (aholisi 93 mln) va Malayziya (aholisi 36.2 mln, shundan 63-64 % musulmon) hissasiga to'g'ri keladi. 2026-yilning boshidagi statistikaga ko'ra, O'zbekiston aholisining soni 38 mln kishidan oshdi va aholining 94-95 % musulmon ekanligidan kelib chiqsak, O'zbekiston o'zida dualistik moliya tizimini joriy etish orqali Global islom moliya bozorining nafaqat bir qismiga aylanish, balki katta qismini tashkil qilish imkoniyati ham mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Khatat, M.E.H. (2016) Monetary policy in the presence of Islamic banking. IMF Working Paper, WP/16/72. Washington, DC: International Monetary Fund, March.

²⁶⁵ L.Klapper. "The Global Findex Database 2014 Measuring Financial Inclusion around the World". World Bank.

²⁶⁶ Ledhem, M. A., & Mekidiche, M. (2022). Islamic finance and economic growth: the Turkish experiment. ISRA International Journal of Islamic Finance, 14(1), 4-19.

²⁶⁷ Naz, S. A., & Gulzar, S. (2022). Impact of Islamic finance on economic growth: An empirical analysis of Muslim countries. The Singapore Economic Review, 67(1), 245-265.

²⁶⁸ <https://proreforms.uz/uz/publications/can-islamic-finance-drive-banking-sector-development-in-uzbekistan-53>

2. Benyamina, N. (2024) 'Financial dualism between Islamic and conventional finance: complementarity and contribution to sustainable and inclusive financing', Review MECAS (Algerian Scientific Journal Platform), 20(2), December.

3. Umarov, S., Tlemsani, I., Hashim, M.A.M. and Matthews, R. (2024) "Implementing Islamic banking in Uzbekistan", Journal of Islamic Business and Management, 14(1), pp. 21–36.

4. International Finance Corporation (IFC) (2020) Enhancing Financial Capability and Inclusion in Uzbekistan: A Demand-side Assessment. June. Washington, DC: International Finance Corporation (World Bank Group), in partnership with the Swiss Confederation.

5. L.Klapper, D.Singer, L.Starita and A. Norris. Global Findex Database 2025. Connectivity and Financial Inclusion in the Digital Economy. World Bank Group. 20250

SUG'URTA KOMPANIYALARINING INVESTITSION FAOLIYATI VA UNING MOLIYA TIZIMIDAGI O'RNI

Olmosova Munisa Sherxon qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, "Moliya" mutaxassisligi magistranti,

Soatova Nodira Boboxanovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

"Moliya va moliyaviy texnologiyalar" kafedrasida dotsenti,

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi moliya bozori barqarorligini ta'minlashda sug'urta kompaniyalarining institutsional investor sifatidagi roli o'rganilgan. Shuningdek, sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyati va uning xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: moliya bozori, institutsional investorlar, sug'urta kompaniyalari, investitsiya portfeli, moliyaviy barqarorlik, kapital bozori.

Bugungi kunda sug'urta tizimini kompleks rivojlantirish mamlakat iqtisodiy rivojlanishining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu jarayonda sug'urta bozorining institutsional asoslarini mustahkamlash, sug'urta kompaniyalari faoliyatini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish, sug'urta xizmatlari sifatini oshirish hamda bozor mexanizmlarini samarali tartibga solish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda²⁶⁹.

Sug'urta kompaniyalari institutsional investorlar sifatida sug'urta mukofotlari hisobidan shakllangan mablag'larni investitsiyaga yo'naltiradi.

²⁶⁹<https://www.neliti.com/publications/668467/sugurta-kompaniyalarining-investitsion-faoliyatini-innovatsion-asosda-rivojlanti>. Gadayev J., Axrorov Z. Sug'urta Kompaniyalarining Investitsion Faoliyatini Innovatsion Asosda Rivojlantirish //Green Economy and Development. – T. 3. – №. 12. – C. 668467.